


# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart


2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 1971,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,7 % ga oshdi.

## Asosiy xizmat turlari bo'yicha xizmatlar hajmining solishtirilishi, mlrd.so'm




Eng yuqori xizmatlar hajmi savdo xizmatlari (666,3 mlrd. so'm), transport xizmatlari (450,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (186,3 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (143,1 mlrd. so'm)ga to'g'ri keladi. Qolgan xizmat turlarida esa, shaxsiy xizmatlar (105,3 mlrd. so'm), ta'lif sohasidagi xizmatlar (80,8 mlrd. so'm) va boshqa xizmatlar (399,4 mlrd. so'm)ni ko'rish mumkin.

### **2018 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi, % da**



Xizmatlar tarkibida savdo xizmatlari (33,8 %), transport xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (9,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,3 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (4,1 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (3,1 %), sog'lioni saqlash sohasidagi xizmatlar (2,3 %), va boshqa xizmatlar (14,5 %) ulushlarni tashkil etdi.

## 2018 yil yanvar-mart oylarida iqtisdiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da




Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (121,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,0 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (112,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (112,2 %) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (109,8 %) ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha xizmatlar ishlab  
chiqarish hajmi**

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Hajmi, mlrd so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>1971,8</b>	<b>104,7</b>
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona	868,6	107,6
Qo'qon	257,7	102,0
Quvasoy	32,0	102,2
Marg'ilon	206,6	103,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	53,3	101,7
Qo'shtepa	31,8	102,4
Bog'dod	43,2	102,3
Buvayda	38,7	101,9
Beshariq	53,8	104,4
Quva	44,6	102,1
Uchko'prik	52,9	103,2
Rishton	42,8	100,1
So'x	15,9	103,3
Toshloq	45,1	103,5
O'zbekiston	41,8	102,8
Farg'ona	54,7	103,9
Dang'ara	45,2	102,0
Furqat	19,2	104,5
Yozyovon	23,9	102,1

Hududlar ichida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi eng yuqori o'sish sur'atlari Farg'ona shahrida (107,6 %), Furqat tumanida (104,5%), Beshariq tumanida (104,4 %) va Marg'ilon shahrida (103,0 %) kuzatildi.

### **2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha xizmatlar umumiyligi hajmida hududlarning ulushi (% da)**



Har bir hudud o'zining ixtisoslashuvi, iqtisodiyotni kompleks rivojlantirish va uni boshqarish imkoniyati bilan boshqasidan farq qiladi.

Xizmatlar sohasini rivojlanishida eng yuqori ulushlarni Farg'ona shahri (44,1%), Qo'qon shahri (13,1%), Marg'ilon shahri (10,5%), Farg'ona tumani (2,8%), Beshariq tumani (2,7%), Uchko'prik tumani (2,7%) va Oltiariq tumani (2,7%) egallaydi.

**2018 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga  
to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm**

<b>Shahar va tumanlar</b>	<b>Hajmi, ming so'mda</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati % da</b>
<b>Viloyat jami</b>	<b>543,9</b>	<b>103,1</b>
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona	3111,0	106,0
Qo'qon	1048,7	101,0
Quvasoy	353,8	100,7
Marg'ilon	904,0	101,7
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	262,2	100,3
Qo'shtepa	174,3	100,7
Bog'dod	209,5	100,5
Buvayda	177,2	100,2
Beshariq	245,1	102,7
Quva	179,4	100,5
Uchko'prik	241,6	101,3
Rishton	220,7	98,5
So'x	212,9	101,4
Toshloq	232,9	101,7
O'zbekiston	182,0	101,1
Farg'ona	266,6	102,5
Dang'ara	271,2	100,5
Furqat	168,8	102,7
Yozyovon	225,0	100,5

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Farg'ona (3111,0 ming so'm), Qo'qon (1048,7 ming so'm) va Marg'ilon (904,0 ming so'm) shaharlarida qayd etildi. Shuningdek, Dang'ara (271,2 ming so'm), Farg'ona (266,6 ming so'm), Oltiariq (262,2 ming so'm), va Beshariq (245,1 ming so'm), Furqat (168,8 ming so'm), Qo'shtepa (174,3 ming so'm), Quva (179,4 ming so'm), va O'zbekiston (182,0 ming so'm) tumanlarida ham aholi jon boshiga xizmatlar hajmi salmoqli bo'ldi.

**Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi**  
**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Mas'ul:** N.Sabirov  
**tel:** (71) 230-87-28